

O‘RTA OSIYODA MAKTAB TA’LIMING RIVOJLANISHI VA USLUBLARI.

Boltayeva Poshshajon Rashidovna

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi bo‘lim mudiri.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘rta Osiyo mintaqasida maktab ta’limining shakllanish tarixi, uning bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonlari va o‘ziga xos o‘qitish uslublari tahlil qilinadi. Tadqiqotda islomiy madaniyatning ta’lim tizimiga ta’siri, an’anaviy maktab va madrasalardagi o‘quv dasturlari, shuningdek, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga kelgan **“usuli jaded”** (yangi usul) maktablarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabxona, madrasa, islomiy ta’lim, usuli jadid, abjad, haftiyak, chor kitob, qorixona, vaqf, domla, taqsir, xalifa, husnixat, adab, Qobusnoma, rus-tuzem maktablari, zeru-zabar, kitobxon, arab grammatikasi, dunyoviy fanlar, boshlang‘ich ta’lim, maslak ul-muttaqin, mufradot.

DEVELOPMENT AND METHODS OF SCHOOL EDUCATION IN CENTRAL ASIA.

ABSTRACT

This article analyzes the history of the formation of school education in the Central Asian region, its gradual development processes, and specific teaching methods. The study highlights the influence of Islamic culture on the education system, the curricula in traditional schools and madrasas, as well as the importance of "usuli jadid" (new method) schools that emerged in the late 19th and early 20th centuries.

Keywords: School, madrasa, Islamic education, usuli jadid, abjad, haftiyak, chor kitob, qarixana, vaqf, domla, taqsir, khalifa, husnikhat, adab, Qabusnama, Russian-style

schools, zeru-zabar, bibliotek, Arabic grammar, secular sciences, primary education, maslak ul-muttaqin, mufradot.

Islomiy ta'limda dastlab xat-savod maktabxonalarda chiqarilgan. Manbalarning xabar berishicha, VII-IX asrlardan boshlab hozirgi O'zbekiston hududida maktabxonalar va madrasalar paydo bula boshlagan. Maktablarda islomiy bilimlar bilan bir katorda dunyoviy fanlarga, jumladan hisob, adabiyot, tarix, geografiya darslariga ham keng o'rin ajratilgan.

Maktabxonalarda o'qish uchun ma'lum yosh belgilanmagan. O'ziga to'q oilalar bolalarini 5-6 yoshida, ko'pchilik ota-onalar esa bolalarini 7 yoshga kirganda maktabga berishgan. Maktablarda 5-6 yoshdan 15-17 yoshgacha bo'lgan bolalar o'qitilgan. Sinfda bolalar soni cheklanmagan, masalan, shahar maktablarida 20-30, qishloqda esa 10-15 bola o'qigan.

Inqilobdan oldingi maktab mahalla masjidida qoshida bo'lib, shu mahalladagi yoshlarning savodini chiqarish uchun xizmat qilgan.

Masjid-(arabcha, sajda qilinadigan joy) namoz o'qish joyi, ibodatxona. Masjidlar o'z hududi doirasidagi aholining hisobini yuritib, xon va davlat tomonidan buyuriladigan ishlarni bajarilishiga mas'ul bo'lgan. Masalan, soliqlarni to'lash, navkar berish, qazuvga odam yuborish va boshkqalar, shuningdek masjidlar shu mahallaning boshlang'ich maktabi ham hisoblangan. Bu maktabda bolalar zehniga qarab 3-4 yildan 7-8 yilgacha o'qitilgan. Maktabni bitkazgan bolalar mahalla mullasi bo'lib chiqishni istasa qorixonaga o'qishga kirgan. Qorixonada Qur'anni qiroat bilan o'qish va to'liq yod olish o'rgatilgan yoki madrasaga kirib o'qishni davom qildirish imkoniyati ham bo'lgan.

Ma'lumotlarga qaraganda aralash maktablar ham bo'lgan (8- 9 yoshgacha). Balogat yoshiga yetishgandan keyin (qizlar 9 yosh, o'g'il bolalar 12 yoshda) ajratilganlar. Har bir maktab bitkazuvchi 1-2 kitob o'qib bilgan, musulmon majburiyatlari va ta'limotini tushungan.

O'rta Osiyo shahar va qishloqlarida boy odamlar qizlari uchun ham maktablar ochishgan. Ko'chmanchi qozoq, turkman, qirg'izlar joylarida maktab va masjidlar

o'tovlarda joylashgan, ular ozlik bo'lgan. Ularda tatar mullalari ishlashgan. Qur'on arab tilida yozilganligi sababli arab grammatikasi o'rganilgan. Dunyoviy fanlardan arifmetikaning to'rt amallari, algebra va Yevklid geometriyasi o'qitilgan.

O'qituvchilar asosan: Imomlar, Muazzin va Mirzolar bo'lgan. Musulmon dunyosining ta'lim sohasida davlat ta'minotiga qaraganda hayriya ko'proq bo'lgan. Oliy ukuv yurtlari - madrasalar amaldor va badavlat kishilar tomonidan vaqf hisobiga, maktablar esa odamlar jamg'armalari bilan ta'minlangan. Maktab masjid qoshida bo'lsa, domla ham masjid vaqfidan o'z ulushini olgan. A.Kunning yozishicha urf - odatga ko'ra, ota o'qituvchi bilan kelishgan xolda, oyiga 0,5 dan 2 tangagacha xaq to'lab, o'zining 6-8 yashar o'g'lini dasturxon bilan olib keladi (non va mevalar). O'g'lini domlaga topshira turib o'z ilmini unga berishni qattiq iltimos qiladi. O'quvchilar alifboni 28 xarfining yozilishini, talaffuzini o'rgangandan keyin zeru-zabar, yani qo'shib o'qilishini o'rganishgan. Keyin o'quvchi qo'shimcha fors xarflarini ham o'rgangan. Shu bilan fonetika, grafika va butun grammatika qismi yakunlanib, lavxlar maktabga olib kelinmagan. Maktab dasturi bo'yicha elementar arifmetika ya'ni, abjad o'tilgan. U shuni bildiradiki, arab harflarining har birining kodi bo'lgan. Masalan: alif - 1, lom - 30, nun - 50 va xokazo. Bunga 1-2 xafta ketgan.

Abjad tarixiy sanalarni bilib olish uchun qo'llanilgan. Abjad yakunlangandan keyin o'quvchi «xaftiyakni» o'rganishga tushgan (Qur'onni 1/7 qismi). U zeru - zabar bilan ta'minlangan. Xaftiyakni o'qishga tushgan o'quvchini - kitobxon deb atashgan. Ota-onalar buning uchun sovg'a salomlar keltirishgan. haftiyakni o'rganish vaqti chegaralanmagan, uni tamomlagan o'quvchiga bir kun dam olish berilgan. Shu kuni ota-onalar boshqa o'quvchilarga, qarindoshlarga, qo'shnilarga, domlalarga ziyofat berib, chopon, kavush, non, uzum va boshqa narsalar tortiq qilishgan.

Bundan keyin o'quvchi Qur'onni yodlashga utgan. Qur'onni o'rganish uchun 1,5-3 yil ketgan. Domla 10-12 qatorni o'qib ko'rsatgan, matn ma'nosini tushuntirmagan, keyin o'quvchining o'zi o'qigan. Ertasiga o'quvchi shu qismini yodlagan. Keyin o'quvchi namoz o'qigandagidek o'tirib o'qituvchiga javob bergan. O'quvchini eshitib, domla

kamchiliklariga e'tibor bergan. O'quvchi o'qiyotganida uch martalab to'xtalib o'qisa, bu vazifa bajarilmagan hisoblangan. Ikkinchi javob berganida bir marta to'xtalganida jazolangan. Keyinchalik vazifalar o'tgan darslar bo'yicha ham berilavergan. Dars o'tgan sayin uning xajmi ham kengayib boravergan. Qur'onni katta qismini o'zlashtirgan o'quvchi, katta e'tiborga ega bo'lgan. Qur'on bilimdoni deb, uni 100 foiz bilgan o'quvchi hisoblangan. Qur'ondan keyin o'quvchi chor kitobni o'rganishni boshlagan.

Chor kitob-bu tojik tilida yozilgan she'r va prozadagi diniy to'plam. Unda musulmonlarning majburiyatlari namoz, taxorat, sadaqa, xaj to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

10-12 yashar o'quvchi xattotlik san'atini ham egallagan. Qur'on va chor kitobni tamomlagandan keyin 1-qism, ya'ni diniy ta'lim yakunlangan. Ta'limning yana bir turi, bu bayramlarda ota-onalarni tabriklash maqsadida she'rlar yodlash bo'lgan. Maktabda o'quvchilar yozishni mashq qilishgan va ko'pincha u ta'limni yakuniy qismi bo'lgan. Yozish darslarida «Mufradot» (toq;, yakka) va «Nusxai mufradot» mashqlari o'rganilgan. Bu kitob chiroyli yozilgan harflardan iborat. Uning asosiy ma'nosi chiroyli yozish va yozishni insonga kerak tomonlari to'g'risida bo'lgan.

Maktab jarayonida tarbiya ham asosiy urin tutgan. Uning asosini adab tashkil etgan. Buni biz «nasixatlar» kitobida yaqqol sezamiz. Kim adabni saqlasa, shu axloqni ham saqlaydi, - deb yozilgan kitobda.

Tarbiya sohasida maktablarda XI asr yodgorligi «Qobusnoma» katta o'rin tutgan. Va shu yunalishda «axloq» degan asarlar paydo bo'lgan. Tarbiya bu butun o'quv tarbiya jarayonining asosini tashkil etgan. Jamiyatda mansab, yosh degan tushunchalar ustun bo'lgani bilan adabga to'laqonligicha qarashgan. Sa'diy shunday deb yozadi: -«Yoshlikda agar adabga o'rganmasang, qarib hech narsaga erisholmaysan».

Adab sohasida o'quvchi domlani xurmatini joyiga kuyishi shart bo'lgan. Xadis da keltirilishicha paygambarimiz: - « kim menga Qur'onni bir surasini o'rgatsa men uning quliman» degan.

Adabda aytiladi: ustozini xurmat qilmagan shogird olgan barcha ilmlaridan baxramand bo'lolmaydi. O'quvchi domlani o'rniga o'tirishga undan oldin so'z boshlashga xaqqi bo'lmagan, darsga o'z vaqtida qatnashishi shart bo'lgan. Darsga kelgan vaqtida u eshikni qoqmagan va o'qituvchining farmonini kutgan. Maktabda o'quvchi domlaga «taqsir» deb murojaat qilgan. Ular domladan oldin kelib o'tirishlari shart bo'lgan. Domla o'rnidan turganida o'quvchilar ham qo'lini ko'ksiga qo'yib o'rnidan turishgan. Ko'rishganda ular «Assalomu-alaykum» deb xatto otdan ham tushishgan. O'quvchi domlani - Hamma topshiriqlarini so'zsiz bajarishi shart bo'lgan. Agar uning ishi chiqib qolsa, qo'lini ko'ksiga qo'yib o'rnidan turib «taqsir» deb murojaat qilgan. Undan keyin domla «marxamat» deb ruxsat qilgach o'quvchi maktabdan chiqib ketgan. Qaytib kelganida ham shu tartib bo'lgan. Maktab intizomiga rioya qilmagan o'quvchi domla va xalifa tomonidan jazolangan.

Boshlang'ich maktabdan keyin ota-onalar bolasini qorixonaga- Qur'on bilimdonlari maktabiga berishgan. Uni bitirgandan keyin uz istagi bulsa madrasaga kirishgan. O'lkaga ruslar kelishi bilan (XIX asr oxiri XX asr boshlarida) Xivada yangi metodli rus tuzem maktablari ochilgan va ularda bolalar o'qitilgan. O'rta Osiyo xalqlarining an'anaviy boshlang'ich ta'limi hayotda katta o'rin tutgan va bu o'z navbatida shu xalqlarning ma'naviy hayotini va ijtimoiy iqtisodiy darajasini belgilab bergan. Mavjud bo'lgan maktablarda va dunyo andozasida ilm berilmagan bulsada, lekin ota - bobolar to'plagan ma'naviy boy meros saqlangan. Ular kupchiligi o'quvchini diniy va dunyoviy salohiyatini belgilab bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Матякубова М. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи: Тарих фанлари номз... дисс. – Тошкент: 2008, –183 б.
2. Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи (1-қисм). – Тошкент, . 2004.
3. Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи (2-қисм). – Тошкент, 2008.

4. Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. Выдающиеся памятники Архитектуры Узбекистана. – Тошкент, 1958.
5. Садуллаев А., Сотлиқов А. Хоразм Маъмун академиясининг тарихий илдиэлари. – Нукус-Урганч: Қорақалпоғистон, 2003.